

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

### Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,**  
**2022.**

<b>K.Kodirov</b>	
O'zbekiston Respublikasida mahkumlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish .....	118
<b>B.Jumayev</b>	
Gastronomik turizm tushunchasining paydo bo'lishi va uning tarixiy asoslari.....	122
<b>U.Usarov</b>	
Rossiya imperiyasi rasmiy amaldorlari va taftish komissiyalarining Turkistondagi yer-suv munosabatlariga doir faoliyatiga oid ba'zi mulohazalar.....	129
<b>SH.Tosheva</b>	
VIII – XII asrlarda O'rta Osiyo shaharlarida kasbiy o'zlikning o'ziga xos xususiyatlari .....	133
	ADABIYOTSHUNOSLIK
<b>A.Sabirdinov</b>	
Tuganmas ilhom manbai .....	138
<b>Q.Yo'lchiyev</b>	
Lirik janr haqida ba'zi mulohazalar .....	142
<b>G.Mashrapova</b>	
Safar semantikasi va genezisiga doir ayrim mulohazalar .....	148
<b>SH.Jumanova</b>	
Usmon Azim she'riyatida kuz motivi .....	151
<b>E.Shevchenko</b>	
O'zbek adabiyot sharhi: boshlanish davridan hozirgi kungacha .....	155
<b>G.Nazarova</b>	
Ingliz hamda o'zbek adabiyotida mifologik obrazlarning mifologizatsiyasi va ularning o'ziga xosligi.....	161
<b>D.Xusenova</b>	
Lev Tolstoyning hayoti va ijodiy faoliyatida sharqning o'rni.....	165
	TILSHUNOSLIK
<b>X.Maxsudova, SH.Shahobiddinova</b>	
Эргонимларнинг лексик-семантик хусусиятлари .....	169
<b>N.Achilova</b>	
Nemis va o'zbek tillarida faunaga oid frazeologizmlar tasviri.....	173
<b>Sh.Sultonova, O.Usmonov</b>	
Diniy frazeologizmlarning ichki shakli dinamik hodisa sifatida .....	178
<b>Z.Akbarova, G.Sodiqova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatishning psixofiziologik va psixolingvistik asoslari .....	182
<b>I.Saydamatov</b>	
Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	186
<b>Sh.Amonturdieva</b>	
Diniy uslubni yuzaga keltiruvchi ekstralingvistik omillar .....	191
<b>M.Batirxanova</b>	
Somatik frazeologizmlarning tarjima masalalarida pragmatik funksiyalarining tadqiqi .....	195
<b>N.Djalilova</b>	
Nofilologik oliy o'quv yurtlarida talabalarni chet til o'qitish kommunikativ kompetentsiyasi .....	199
<b>A.Zinatullina</b>	
O'zbek va fransuz tillarini tarjima qilishdagi qiyinchiliklar .....	203
	MATEMATIKA
<b>A.O'rinov, M.Azizov</b>	
Yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun to'g'ri to'rtburchakda boshlang'ich-chegaraviy masala .....	207
<b>K.Xalilov</b>	
Singulyar koeffitsiyentli parabolo-giperbolik tenglama uchun integral shart va Bitsadze-Samarskiy sharti qatnashgan masalalar.....	225
<b>T.Xasanov</b>	
Davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida manbali yuklangan Korteveg-de Friz tenglamasiga qo'yilgan koshi masalasi.....	232

## DINIY FRAZEOLOGIZMLARNING ICHKI SHAKLI DINAMIK HODISA SIFATIDA

## ВНУТРЕННЯЯ ФОРМА РЕЛИГИОЗНОЙ ФРАZEОЛОГИИ КАК ДИНАМИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ

## INTERNAL FORM OF RELIGIOUS PHRASEOLOGY AS A DYNAMIC PHENOMENON

Sultonova Shoxista Muxammadjanovna<sup>1</sup>, Usmonov Otabek Iqboljon o'g'li<sup>2</sup><sup>1</sup>Sultonova Shoxista Muxammadjanovna

– O'zDJTU dotsenti, PhD

<sup>2</sup>Usmonov Otabek Iqboljon o'g'li

– O'zDJTU rus filologiyasi fakulteti talabasi

**Annotatsiya**

Maqolada diniy frazeologizmlarning ichki shakli va frazeologik ma'no o'rtasidagi mutanosiblik masalasi o'rganilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun ko'p aspektli fanlararo yondashuvga asoslanilgan hamda semantik metod, komponent tahlil metodi, lingvomadaniy tahlil metodi, kommunikativ tilshunoslik metodlari, xususan, transformatsion metodika qo'llanilgan. Qo'shimcha tadqiqot usullari sifatida etimologik sharhlash va lug'at ta'riflari (definitiviyalari)ni semantik tahlil qilish usullari qo'llanilgan. Natijada diniy frazeolik birlik ichki shaklining muhim xususiyati uning dinamik tushuncha ekanligi, uni so'zlovchilar tomonidan idrok qilish til taraqqiyotining turli davrlarida o'zgarib borishi hodisasi yoritilgan.

**Аннотация**

В статье рассматривается проблема взаимосвязи внутренней формы религиозных фразеологизмов и фразеологического значения. Для достижения поставленной цели на основе многопланового междисциплинарного подхода используются семантический метод, метод компонентного анализа, метод лингвокультурологического анализа, методы коммуникативной лингвистики, в частности, метод трансформации. В качестве дополнительных методов исследования использовались этимологическая интерпретация и семантический анализ словарных определений. В результате внутренняя форма религиозных фразеологических единиц характеризовалась как динамическое понятие, объясняется изменение восприятия носителями языка ее внутренней формы на разных этапах развития языка.

**Abstract**

The article discusses the problem of the relationship of the internal form of religious phraseological units and phraseological significance. To achieve this goal on the basis of a multifaceted interdisciplinary approach, the semantic method, the method of component analysis, the method of linguoculturological analysis, the methods of communicative linguistics, in particular, the transformation method, are used. Etymological interpretation and semantic analysis of dictionary definitions were used as additional research methods. And also the internal form of religious phraseological units is characterized as a dynamic concept, it explains the change in the perception of native speakers by the native speakers at different stages of language development.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birlik, ichki shakl, frazeologik ma'no, frazeologik birlik prototipi, diniy frazeologizm, etimologik ma'no, diaxron va sinxron motivlashtirilganlik, diniy an'ana, transformatsiya.

**Ключевые слова:** фразеологическая единица, внутренняя форма, фразеологическое значение, прототип фразеологической единицы, религиозный фразеологизм, этимологическое значение, диахронная и синхронная мотивированность, религиозная традиция, трансформация.

**Key words:** phraseological unit, internal form, phraseological meaning, phraseological unit prototype, religious phraseological unit, etymological meaning, diachronous and synchronous motivation, religious tradition, transformation.

**KIRISH**

Frazeologizmlar halq lisoniy ijodkorligining yorqin namunalari sifatida uning tarixi, madaniyati, turmush tarzi hamda e'tiqodi to'g'risida ma'lumot bera olish imkoniyatiga ko'ra boshqa til birliklaridan o'z ustunligini namoyon qiladi. Mazkur birliklar turg'un birikmalar sifatida qabul qilinishida ularning barqarorlik xususiyati muhim o'rin tutganligiga qaramay, ularning dinamik hodisa sifatida nutq jarayonida barqarorlashishi, ya'ni turli ko'rinishdagi transformatsiyalari halq tafakkuri taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda madaniy o'zgarishlarni yuqori darajada obrazli ifodalashi alohida qiziqish uyg'otadi.

Diniy frazeologizmlar dinning jamiyat hayotidagi roli o'zgarishi hamda ko'plab diniy amallarning esdan chiqishi natijasida transformatsiyaga uchrashini o'rganish alohida qiziqish uyg'otadi. Shuningdek, diniy frazeologizmlarning ichki shaklini idrok qilish turli til egalari tomonidan turlicha bo'ladi va bu ularning bilim darajasi hamda diniy e'tiqodi bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Mazkur maqola umuman

## TILSHUNOSLIK

frazeologizmlarda, xususan, diniy frazeologizmlarda ichki shakl va uning taraqqiyoti masalasiga bag'ishlanadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolada qo'yilgan maqsadga erishish va belgilangan vazifalarni bajarishda hozirgi zamon tilshunosligida diniy leksika va frazeologiya masalasining murakkabligi, ko'p qirraligidan kelib chiqib, ushbu birliklarni o'rganish va tavsiflash uchun ko'p aspektli fanlararo yondashuvga asoslanildi hamda quyidagi tilshunoslik va fanlararo tadqiqot metodlaridan foydalanildi: lisoniy tavsif metodi; semantik metod (diniy frazeologizmlarning ma'noviy tahlilini amalga oshirishda); komponent tahlil metodi (diniy frazeologizmlarning tarkibiy xarakteristikasini yoritishda); lingvomadaniy tahlil metodi (diniy frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashda); kommunikativ tilshunoslik metodlari, xususan, transformatsion metodika (diniy frazeologizmlarning vaziyatga bog'liq holda struktur yoki semantik o'zgarishlarini tahlil qilishda); Qo'shimcha tadqiqot usullari sifatida etimologik sharhlash va lug'at ta'riflari (definitivlari)ni semantik tahlil qilish usullari qo'llanildi.

Hozirgi kunda frazeologlar o'rtasida frazeologik birliklarning (FB) ichki shakli xususida bahslarga o'rin qolmagan – FB ichki shakli frazeologik ma'no tarkibida muhim ahamiyatga ega ekanligi barcha tomonidan tan olingan. Zero, frazeologik birliklar tabiatan ekspressiv birliklar hisoblanadi va aynan ichki shakl, ongda referent bilan frazeologik birlik prototipi orqali nazarda tutilgan vaziyat o'rtasidagi moslik to'g'risida tasavvurni hosil qilgan holda, "kommunikantlarning hissiy holatiga ta'sir qiladi va shu orqali anglashilayotgan mazmuni kuchaytiradi, ya'ni hissiy effekt hosil qiladi [9, 34].

Rossiya tilshunosligida frazeologizmlar ichki tuzilishining mohiyatini anglash borasida turli yondashuvlar mavjud, xususan, ushbu tushuncha ta'rifida FB prototipi komponentlari qanday o'rin egallashiga ham urg'u beriladi. Tilshunoslikning poststrukturalistik rivojlanish bosqichiga o'tishi bilan kognitiv tilshunoslik va lingvopsixologiya kabi fanlar shakllanishi barobarida olimlar ichki shakl tushunchasi inson tafakkuri kategoriyalariga tegishli hamda olam to'g'risidagi operatsiyalar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq, idiomalarni aslicha qo'llash esa siljish nuqtasi hisoblanadi degan fikrga ko'proq kela boshladilar [2, 114].

V.N.Teliyaning ishlarida ichki shakl psixologiyaga oid "getshalt" termini, ya'ni qandaydir assotsiativ-obrazli majmua yoki soddalashtirilgan tasavvur – so'z birikmasining o'z ma'nosi bilan tavsiflanayotgan haqiqiy yoki o'ylab topilgan vaziyatning soddalashtirilgan va tipiklashtirilgan nusxasi bilan muvofiqlashtiriladi [10, 41]. Ichki shaklning o'zini esa V.N.Teliya idiomani aslicha qo'llash orqali dastlabki obraz bilan bog'lovchi verbal assotsiatsiyalarni qayd qiluvchi FB ma'nosini tashkil qilish usuli sifatida tavsiflaydi [10, 41].

Kognitiv-semiologik paradigma doirasida ichki shakl frazeologik nominatsiya asosida yotgan predmet belgisi bilan shartlangan, FB ma'nosi va ifodalanayotgan predmetli vaziyat o'rtasidagi vosita vazifasini bajaruvchi logik-semantik element sifatida tavsiflanadi. Ichki shakl na uning etimologiyasiga, va na uning dolzarb ma'nosiga bog'liq bo'lgan, formallashtirilgan semantik element, FB ning "firk predmeti va ma'nosi muvofiqlashuvi usuli bo'lib xizmat qiluvchi obrazni tavsiflash vositasi" sifatida tushuniladi [1, 62].

Ushbu nuqtai nazar O.A. Voronkova tomonidan rivojlantirilgan holda, olim tomonidan ichki shakl lingvokognitiv kategoriya sifatida o'rganiladi hamda uning bir vaqtning o'zida kognitiv va lisoniy kabi ikki sohaga tegishliligi ta'kidlanadi, u FB paydo bo'lishiga asos bo'lgan birlamchi denotativ vaziyatdan ong orqali ajratilgan motivlashtiruvchi belgi sifatida tushuniladi [5, 49]. Masalan, rus tilidagi *dva sapoga para* frazeologik birligining ichki shakli, muallif fikricha, "yonma-yon turgan bir butun narsa" kabi anglanadi, uning asosida "moslik, o'xshashlik, bir xillik" kabi belgilar "birga foydalaniladigan va bir butunlikni tashkil qiladigan ikkita bir xil predmetlar" ma'nosini ifodalovchi *para* leksik komponentdan kelib chiqadi, ya'ni ikkita bir xil etik doim juftlikni tashkil qiladi [5, 47].

D.O. Dobrovolskiy va A.N. Baranovlar ichki shakl talqiniga klassik tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashadilar. Ularning ishlarida ichki shakl FB mazmun planining muhim qismi sifatida tavsiflanadi va "frazelogizmning mazmun planida qayd qilingan obraz, shuningdek, til egasi tomonidan anglanadigan frazeologizm ma'nosining uni tashkil qiluvchilar – so'zlar yoki morfemalar orqali obrazli motivatsiyasi" [3, 130] sifatida ta'riflanadi. Muallif fikricha, ichki shaklning asosiy vazifasi "nima qanday tasvirlanmoqda", "shaklda", "... bilan taqqoslanuvchi", "nima qanday anglanmoqda" [3, 23] kabi operatorlar orqali FB ning semantik eksplikatsiyalarida namoyish qilinishi mumkin bo'lgan frazeologizmning dolzarb ma'nosiga ishora qilish usulini qayd qilishdan iborat. Masalan, *so'rab-so'rab Makkani topishibdi* iborasida borilayotgan manzil qanchalik notanish va uzoq bo'lmasin, uni topish mumkinligi, buning uchun

atrofdagilardan so'rab ma'lumot olish zarurligi, qolaversa, hatto Makkani topgan odam boshqa manzilga albatta yetib olishi anglashiladi.

A.V. Kunin ichki shaklni aktual (dolzarb) ma'no bilan derivatsion munosabatlar orqali bog'liq bo'lgan FB prototipi ma'nosi sifatida tushunadi. Bunda prototiplar nutqiy – o'zgaruvchan so'z birikmalari va gaplar; lisoniy – muallif tasnifi bo'yicha idiofrazematizmlarga va frazeologik derivatlarga xos; nolisoniy – turli ekstralingvistik omillarni o'z ichiga oluvchi; aralash va tuzilmalararo bo'lishi mumkin [7, 195-203].

### NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Frazeologik birliklarning ichki shakliga oid tilshunoslikda mavjud turli nuqtai nazarlar tahlili natijasida xulosa qilish mumkinki, ichki shakl ko'pchilik olimlar tomonidan FB semantik tuzilishining muhim komponenti sifatida tan olinadi va FB ning erkin sintaksisli prototipi hamda uning ma'nosi o'rtasidagi oraliq qism sifatida tushuniladi. Ushbu qism FB ma'nosiga asos bo'lgan obrazning qandaydir sxematik, tipiklashtirilgan tasavvuri hisoblanadi.

Ichki shaklning muhim xususiyati uning statik emas, balki dinamik tushuncha ekanligidir, chunki uni so'zlovchilar tomonidan idrok qilish til taraqqiyotining turli davrlarida o'zgarib boradi. Bunda ushbu hodisa frazeologik ma'noning motivlashtirilganligi tushunchasi, ya'ni A.V. Kunin ta'riflaganidek, FB komponentlarining asl ma'nolari bilan bog'liq bo'ladi [7, 200]. Sinxron planda bunday aloqa mavjud bo'lgan taqdirda frazeologik ma'no komponentlarning asl ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan FB lardagi ichki shakl "jonli" hisoblanadi. FB va uning prototipi o'rtasidagi derivatsion aloqa mavjud bo'lmagan holda hamda etimologiyasi noaniq bo'lgan FB larda ichki shakl "o'lik" hisoblanadi [7, 204].

FB ning ichki shakli uning motivlashtirilganligini ifodalovchi vositadir degan fikr boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham tasdiqlanadi [8, 20]. Bunda ichki shaklning xususiyatiga bog'liq holda motivlashtirilganlik sinxron (aktual) yoki diaxron (etimologik) bo'lishi mumkin. Shunday qilib, sinxron motivlashtirilgan FB til egalari tomonidan FB faoliyat davrining mazkur bosqichida anglashiladigan sinxron yoki aktual (dolzarb) ichki shakliga ega bo'ladi. Agar FB ma'nosi retrospektiv tahlilsiz uning komponentlari ma'nosi bilan hech qanday muvofiqlashmagan bo'lsa, demak gap FB etimologik ma'nosi va birlamchi denotativ vaziyatga vosita bo'lgan diaxron yoki etimologik ichki shakl to'g'risida ketyapti. Bunda diaxron ichki shakl to ma'lum vaqtgacha til egalari uchun sinxron ichki shakl maqomida bo'lib qolishi mumkin [4, 17-19].

Ma'lum komponentlar an'anaviy tarzda ongda ma'lum assotsiatsiyalar keltirib chiqaradi va ichki shaklning shaffofligini ko'rsatadi. Masalan, *shayton (iblis)* komponenti ko'ngilsizlik ma'nosi bilan bog'lanadi: *shaytoni layn; shaytonning yo'liga yurmoq; shaytoniy nafs* va h.k..

*Farishta* esa yuqori darajadagi yaxshi nimaningdir ramzini anglatadi hamda shu komponent bilan bog'liq ijobiy ma'nodagi frazeologizmlarga asos bo'ladi. Masalan, *uyning farishtasi, farishta ayol, farishtaning o'zginasi* va h.k. Bundan tashqari, ma'no ko'chishida qanday belgi asos bo'lganligiga qarab *farishta* komponenti oq rang bilan ham bog'lanishi mumkin: *farishtadek oppoq*.

FB ning ichki shaklini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda dastlab ma'no ko'chishi yuz bergan birlamchi obrazni nazarda tutuvchi etimologik ichki shakl esdan chiqib ketadi hamda FB til egalari uchun motivlashtirilganlik xususiyatini yo'qotadi, chunki etimologik ichki shakl frazeologik ma'noni shaffof motivlashtiruvchi aktual (dolzarb) ichki shakl bilan almashtiriladi.

Bunday hodisani A.G. Nazaryan yolg'on yoki subyektiv motivatsiya deya ataydi va uni so'zlovchi qo'llayotgan FB ma'nosi bilan uning ongida FB komponentlarining ularning erkin qo'llanuvchi tegishli so'zlar bilan mazmuniy aloqasi tufayli real sintaktik aloqalari orqali yuzaga keltiriluvchi obrazlarni insonning mavhum tafakkur qila olish qobiliyati bilan bog'laydi [8, 140]. Haqiqatan ham, ba'zi hollarda etimologik ichki shaklni bilish so'zlovchi tomonidan frazeologik ma'noni to'g'ri tushunish uchun shart emas, chunki ichki shakl talqini rivojlanib boradi hamda etimologik ichki shakl dolzarb ichki shaklga almashishi mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi *jini qo'zimoq* iborasining ma'nosi – qattiq jahli chiqmoq diaxron planda qadimda insonlarning diniy tasavvurlari asosida yuzaga kelgan ibora sifatida etimologik jihatdan obrazlilikning asosini tashkil qiladi. Sinxron planda oladigan bo'lsak, hozirgi kunda dolzarblashgan ichki shakl haqida gapirish mumkin, ya'ni mazkur FB etimologik jihatdan dinga bog'liq bo'lsa, zamonaviy kontekstda kundalik hayot bilan bog'liq insonning ruhiy holatini anglatadi.

O'zbek tilshunos olimasi E.Ibragimovaning aksiologik izlanishida *mo'min-qobil* iborasi ijobiy baho ifodalovchi leksema sifatida ta'riflanadi [6, 36]. Ibragimova Haqiqatan ham ushbu iborani tashkil qiluvchi har ikki komponent ham diniy etimologiyaga ega bo'lgani holda yuvosh, og'ir bosiq insonni tavsiflaydi. Ushbu leksemalarning ichki shakli hozirgi kun kishisi uchun shaffof bo'lmasa ham, tarixan diniy ta'limotlar asosida shakllangan tasavvurlar, assotsiatsiyalar ijobiylikka ishora qiladi.

## TILSHUNOSLIK

Bizning kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, diniy komponentli FB motivining yo'qolib ketishiga biror diniy an'ana, realiyaning jamiyat hayotida muomaladan chiqib ketishi yoki shunchaki birlamchi denotativ vaziyatning esdan chiqarilishi sabab bo'ladi. Masalan, *tavbasiga tayantirmoq* – biror kishining aytgan gapidan yoki qilgan ishidan pushaymon qildirmoq, rad ettirmoq iborasining obrazlilik islom tarixiga oid manbalar bilan bog'liq. Yoki *asfalasofilinga jo'natmoq* – kimnidir o'ldirmoq iborasida FB prototipi va uning ma'nosi o'rtasidagi aloqa diniy manbalardan ma'lum bo'lgan talqin bilan izohlanadi:

*din*. Do'zaxning eng tagi, jahannam.

Asfalasofilin bo'lmoq yoki asfalasofilinga ketmoq: 1) chuqurlikka, jarlikka tushib ketmoq; 2) *ko'chma* halok bo'lmoq, halokatga uchramoq (<https://uz.wiktionary.org/wiki/>).

Yuqorida tahlil qilingan diniy komponentli FB larda ichki shakl shaffof emasligini aytish mumkin, chunki ularning denotati FB ma'nosi bilan muvofiq kelmaydi. Xullas, ba'zi holatlarda ichki shakl FB ma'nosini motivlashtirmaydi, bunga sabab FB komponentlari tarkibining buzilishi, komponentlarning arxaizmlar va dialektizmlar toifasiga o'tib qolishi, shuningdek, FB komponentlarining erkin qo'llanuvchi so'zlar bilan muvofiqlashuviga to'sqinlik qiluvchi ba'zi holatlar bo'lishi mumkin.

## XULOSA

Diniy FB ichki shaklini o'rganish natijasida shunday xulosa qilish mumkinki, XX asr davomida dinning roli past bo'lganligi hamda ko'plab diniy an'ana, realiya va amallarning esdan chiqarilishi natijasida ba'zi diniy frazeologizmlarning ichki shakli qorong'i bo'lib qolgan, ya'ni ularning asl ma'nosi til egalari uchun FB komponentlari va uning ma'nosi o'rtasidagi mantiqiy-semantik aloqa uzilganligi sababli tushunarli bo'lmay qolgan. Ushbu muammoning kelgusida atroflicha o'rganilishi kelib chiqishi din bilan bog'liq frazeologizmlarning ma'naviy evolyusiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar olish imkonini beradi.

Diniy frazeologizmlar transformatsiyasining asosiy qonuniyatlari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin: 1) *diniy manbadagi prototipning o'z ma'nosida qo'llanilishi*; 2) *diniy manba prototipining varianti frazeologizmga aylanishi*; 3) *diniy manbadagi iboraning o'zgargan shakli frazeologizmga aylanishi*; 4) *frazeologizm manbada o'z ma'nosida qo'llanilgan diniy komponentlardan tashkil topsa ham, biroq erkin (o'zgaruvchan) birikmalar hosil qilmasligi*; 5) *diniy manba syujetiga xos frazeologik birlikning faqat bir komponenti asosida yangi FB yaratilishi*; 6) *so'z o'yini natijasida iboraning shakllanishi*; 7) *diniy frazeologizmdagi hissiy bahoning o'zgarishi uning shakliy tarkibi o'zgarmasdan ham yuz berishi mumkinligi*.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Alefirenko N. F. Zamonaviy lingvistik paradigmalar asosida frazeologiya: monografiya. – M., 2008. – 270 b. (Alefirenko N.F. Phraseology in the light of modern linguistic paradigms: monograph. – M., 2008. - 270 p.).
2. Baranov A. N., Dobrovolskiy D. O. Frazeologiya nazariyasi aspektlari. – M., 2008. – 656 b. (Baranov A.N., Dobrovolskiy D.O. Aspects of the theory of phraseology. M., 2008. - 656 p.).
3. Baranov A. N. frazeologiya asoslari / A. N. Baranov, D. O. Dobrovolskiy; Rossiya davlat gumanitar fanlar un-ti, Tilshunoslik instituti, Rossiya fanlar akademiyasi, V. V. Vinogradov nomidagi rus tili instituti. 3-nashr. M.: Flinta: Nauka, 2016. – 307 b. (Baranov A.N. Fundamentals of phraseology / A.N. Baranov, D.O. Dobrovolskiy; Russian state Humanitarian University, Institute of Linguistics, Russian Acad. Sciences, Institute of the Russian Language. V. V. Vinogradova. 3rd ed. M.: Flinta: Nauka, 2016. - 307 p.).
4. Voronkova O.A. Frazeologizmning ichki shakli lingvokognitiv kategoriya: rus tilining materialida: filologiya fanlari nomzodi diss. avtoreferati: 10.02.01 / Voronkova O. A. Belgorod, 2009. – 22 b. (Voronkova O.A. The internal form of the phraseme as a linguocognitive category: on the material of the Russian language: author. dis. ... cand. philol. Sciences: 10.02.01 / Voronkova O. A. Belgorod, 2009. - 22 p.).
5. Voronkova O.A. Frazeologizmning ichki shakli lingvokognitiv kategoriya: rus tilining materialida: filologiya fanlari nomzodi diss. avtoreferati: 10.02.01 / Voronkova O. A. Belgorod, 2009. – 206 b. (Voronkova O.A. Phraseme Internal Form as a Linguistic and Cognitive Category: Based on the Material of the Russian Language: Dis. ... cand. philol. Sciences: 10.02.01 / Voronkova O. A. Belgorod, 2010. - 206 p.).
6. Ibragimova E. O'zbek tili leksikasining aksiologik tadqiqi: O'quv-uslubiy qo'llanma. – Farg'ona, 2018. – 84 b. (Ibragimova E. Axiological study of Uzbek lexicon: Textbook. - Ferghana, 2018. - 84 p.).
7. Kunin A.V. Zamonaviy ingliz tili frazeologiyasi kursi. Dubna, 2005. - 488 b. (Kunin A. V. Course of phraseology of the modern English language. Dubna, 2005. - 488 p.).
8. Nazaryan, A.G. Zamonaviy frantsuz tilining frazeologiyasi. - M.: Yuqori maktab, 1987. - 287 b. (Nazaryan, A.G. Phraseology of modern French. – M.: Higher. school, 1987. - 287 p.).
9. Teliya V.N. Funktsional-parametrik xaritalashda idiomalarning semantikasi // Rus tilining mashina fondidagi frazeografiya. M., 1990. 32-48 b. (Teliya V.N. Semantics of idioms in functional-parametric mapping // Phraseography in the Machine Fund of the Russian Language. M., 1990. P. 32-48.).
10. Teliya V.N. Iqtibos 41 b. (Teliya V.N. Cit. P. 41.)

(Taqrizchi: Sh.Iskandarova - filologiya fanlari doktori, professor)